

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDASH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA’SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI.....	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA’MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. ЗулфANOVA Нигина Нуриддиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O'tkirona, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA).....	114
23. Xasanova Mavlyuda Batoryaliyevna ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O'LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE'RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA'MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Iskandarova Aybibi Raximbayevna

O'zbekiston Milliy universiteti

Kompyuter lingvistikasi va amaliy
tilshunoslik kafedrası dotsenti, f.f.n.

E-mail: aybibiiskandarova1962@gmail.com

“QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18734077>

ANNOTATSIYA

Tillararo muloqotning samaradorligini oshirish, kompyuter texnologiyalari asosida sifatli tarjima tizimlarini rivojlantirib borish dozarb masalalardan biridir. O'zbek milliy korpusi doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarjima nazariyasi va amaliyoti, bilingval lug'atshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik kabi sohalarida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada parallel korpusda rus-o'zbek badiiy matnlaridagi frazemalarining xoslanishi, tarjima jarayonida interpretatsiya holatlari, ularning birikma va gap holatidagi shakllari, gap ichidagi kombinatsiyalari, strukturaviy farqlari, tarjimonning uslubiy o'ziga xosligi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: parallel korpus, frazema, kolokatsiya, xoslanish, so'z birikmasi va gap shaklidagi frazema, morfologik modellar, teglash.

Искандарова Айбиби Рахимбаевна

Национальный университет Узбекистана

Доцент, к.ф.н. кафедры «Компьютерной
лингвистики и прикладной лингвистики»

E-mail: aybibiiskandarova1962@gmail.com

РУССУЖДЕНИИ О ПРОИСХОЖДЕНИИ ИДИОМ В РОМАНЕ «ПЛАХА»

АННОТАЦИЯ

Повышение эффективности межкузыкового общения, развитие качественных систем перевода на основе компьютерных технологий — одна из насущных проблем. Исследования, проводимые в рамках узбекского национального корпуса, имеют значимость в таких областях, как теория и практика перевода, билингвальная лексикография, лингвокультуроология, сопоставительная лингвистика.

В данной статье рассматриваются случаи фиксации фразеологизмов в русско-узбекском параллельном корпусе художественных текстов, ситуации интерпретации в процессе перевода, их формы в составе словосочетаний и предложений, сочетания внутри предложения, структурные различия, стилистическая особенность переводчика.

Ключевые слова: параллельный корпус, фраза, коллокация, атрибуция, фраза в форме словосочетания и предложения, морфологические модели, разметка.

Iskandarova Aybibi Rakhimbayevna

Associate Professor, Ph.D. (Philology)

Department of Computational Linguistics and applied Linguistics

National University of Uzbekistan

E-mail: aybibiiskandarova1962@gmail.com

DISCOURSE ON THE ORIGIN OF IDIOMS IN THE NOVEL "QIYAMAT"

ANNOTATION

Enhancing the effectiveness of interlingual communication and developing high-quality translation systems based on computer technologies are among the pressing issues of today. Research conducted within the framework of the Uzbek National Corpus is gaining importance in such fields as translation theory and practice, bilingual lexicography, linguoculturology, and comparative linguistics.

This article discusses the characteristics of phraseological units in Russian-Uzbek literary texts within a parallel corpus, the ways they are interpreted during the translation process, their forms as phrases and sentences, their combinations within sentences, their structural differences, and the stylistic individuality of the translator.

Keywords: parallel corpus, phraseme, collocation, localization, phraseme in the form of a word combination and sentence, morphological models, labeling.

Bugungi kunda milliy tilimiz kamresursli tildan, korpus dasturlari yordamida yuqori resursli tilga aylanib bormoqda. Tilimizni boyitib borish va asrash, uni avlodlarga sof holatda meros qoldirish, xalqaro nufuzini balandlatish har birimizning burchimizdir. O'zbek parallel korpusini bir necha tillar kesimida turli janrlarga doir matnlar bilan boyitib borish, shungdek, parallel frazemalarning morfologik va sintaktik modellashtirilgan, tarkibiy xususiyatlariga ko'ra teglangan ta'minotini yaratish, ularning lingvokulturologik asoslarini aniqlash va rus-o'zbek til egalari lisoniy ongi bilan bog'liq kognitiv modellarni ishlab chiqish, mazkur tillardagi frazemalarni qiyoslash jarayonida olingan xulosalardan o'zbek frazeologiyasi taraqqiyotining umumiy va xususiy belgilarini aniqlash soha mutaxassislarining vazifasidir.

Xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlari barqaror birikmalarda namoyon bo'ladi. Bu lingvomadaniy birliklarda o'sha xalq haqida madaniy axborot beriladi. V.A.Maslova frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo'lgan milliy madaniyatning "izi" mavjudligi; frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo'lgan madaniy informatsiya saqlanishi va u frazeologizmga madaniy-milliy bo'yoq berishi; ularning tahlili jarayonida milliy-madaniy konnotatsiyani ochish muhimligini ta'kidlaydi [1.82]. V.N. Teliya frazemalarni "lingvomadaniy jamoa milliy o'zligini ko'radigan ko'zgudir" deb baholaydi [2.76].

Sh. Rahmatullayev frazeologik birliklarning tarkibida kamida ikkita leksema qatnashishi; o'zaro sintaktik bog'langan bu leksemalar mohiyatiga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'lishi; frazeologik ma'no, uni sintaktik birlik (nutq birligi) deb emas, balki semantik birlik (til birligi) deb qarashga olib kelishini asoslaydi: "Iboralarning asosiy qismini fe'l frazeologik birliklar tashkil etadi. Frazeologik birliklarning leksik tarkibida, fe'l so'z - komponentidan tashqari, boshqa turkum so'zi ham qatnashadi. Bunday komponentlar ko'pincha ot, sifat, ravish turkumi bilan ham ifodalanadi." [3.9].

Professor N.Abduraxmonova mashina tarjimasini uchun ingliz-o'zbek frazemalari modellarini tadqiq qilar ekan, ingliz tilida frazema terminining quyidagi ma'nolarda qo'llanilishini qayd etadi: 1) fe'l yoki ravish bilan keluvchi predloglarning birgalikda muayyan ma'noga tenglashishi; predlog bilan keluvchi ot, sifat, fe'l va ravish so'z turkumlarining o'zaro yaxlitlanib, bitta ma'noda kelishi. Shuningdek, frazeologik birliklarning frazema va idiomalarga ajratilishi, idiomalar tarkib toptiruvchi

komponentlarining yaxlitlanib, bir umumiy ma'noni ifodalashi, turg'un birikmalarning idioma, frazeologizm, frazema, frazeologik birliklar nomlari bilan yuritilishini ta'kidlaydi [4. 36].

Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema – ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq, so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan barqaror (turg'un) bog'lanmalarining nomidir. Tilshunoslikda frazeologizmlar ibora, frazeologik birlikma, turg'un birlikma, barqaror birlikma atamaları bilan yuritiladi. Barqaror birikmalarga maqol va matallar ham kiradi.

Uzbekcorpus.uzda va rus, ingliz korpuslarida iboralar *Collocation* /COLC/ atamasi bilan yuritiladi. Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romanida talaygina turg'un birikmalar mavjud bo'lib, ular birlikma va gap shaklida qo'llanilgan. “Qiyomat” da turg'un birikmalarni tahlil qilganimizda, ularning tarkibi [ot+fe'l], [sifat+fe'l], [ot+sifat], [ot+ot] kabi shakllaridagi namunalardan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi. Masalan, *милость судьбы* [ot+ot] – *taqdirning mehribonchiligi* [ot+ot]; *проклятой травы* [sifatdosh+ot] – *qarg'ish tekkan bang o't* [sifatdosh +ot], *самый покладистый и безобидный* [sifat+sifat]– *qo'y og'zidan cho'p olmagan* [ot+ot+ot+fe'l].

Bir-biridan uzoq bo'lgan tillarga tegishli badiiy matnlar tarjimasida, bunday farqli jihatlilar sodir bo'lishi tabiiy: *целая система промыслов* [sifat+ot+ot] – *miridan-sirigacha ishlab chiqmoq* [ravish+fe'l+fe'l]; Tarjima jarayonida ko'chma ma'noga ega bo'lmagan birliklar ibora shaklida o'girilishi mumkin: masalan, *как сумашедший* – *xuddi jin tekkandek, поменьше общаться между собой* – *bir-birlariga miq etib og'iz ochmaslik, задуманное дело* – *ko'nglimga tukkan ish, обо всех своих неудачах* – *ishi yurishib ketmayotganligi, уже к вечеру* – *oqshomga tortib, не выдержали* – *yuraklari dosh bermay...*

Asardagi on умер – *xabar maylidagi sodda gap asliyat tilidan maqsad tiliga lingvomadaniy birlikka aylangan holda, omonatini topshirdi iborasi shaklida o'girilgan.*

Romanda frazemalarning eng ko'p uchraydigan shakli [глагол+ существительное] [ot+fe'l] bo'lib, korpus tilida fe'lli kolokatsiya deb yuritiladi, ularni quyidagi jadvalda ko'rsatamiz:

1	<i>притаилась, от страха</i>	<i>esxonalari chiqqancha</i>
2	<i>в страхе пропустили еще сильнее</i>	<i>vahimaning kuchi bilan yanada zo'r berib</i>
3	<i>исхлестанным ветром лицом</i>	<i>basharasini yel yalab ketgan</i>
4	<i>и понеслись куда глаза глядят</i>	<i>bosh oqqan tomonga jo'namoq</i>
5	<i>озлоблены на мир</i>	<i>dunyodan to'ygan</i>
6	<i>не разгадали при этом извечной загадке</i>	<i>boshlarini qotirib kelayotgan jumboqni yecha olmayotganliklari</i>
7	<i>заново восстанавливая в памяти</i>	<i>xotirasida yana bir boshdan tiklab</i>
8	<i>замысел состоял в том</i>	<i>ko'ngliga tugib qo'ymoq</i>
9	<i>надеялся на память</i>	<i>xotiramga ishonmoq</i>
10	<i>не вызывают энтузиазма</i>	<i>ko'ngillari sovimoq</i>
11	<i>под свою ответственность</i>	<i>mas'uliyatni o'z ustimga olib</i>
12	<i>поднять в прессе</i>	<i>matbuotda ko'tarib chiqmoq</i>
13	<i>от саморазрушения личности</i>	<i>shaxsning o'z-o'zini yemirishidan tortib</i>
14	<i>ни за что невыдавать друг друга</i>	<i>bir-birlarini sotmaslik</i>
15	<i>как щенку, живой водоворот</i>	<i>girdobga tushgan cho'pdek chirpirak bo'lib aylanmoq</i>
16	<i>как между жерновками</i>	<i>tegirmon tosh o'rtasida qolganday</i>

Tarjimashunos olim G'. Salomov har bir ijodkorning o'ziga xos individual uslubidan kelib chiqadigan, “tarkibiy milliylik”, “uslubiy milliylik”, “individual milliylik”, “davriy milliylik”, “nutqiy milliylik” mavjudligini, buni tarjimada qanday aks ettirish yo'llarini izlab topish faqat tashqi milliy-etnografik belgilar, milliylik komponentlarini berish yo'llarini aniqlashga qaraganda beqiyos murakkab va muhim”ligini alohida ta'kidlab o'tadilar [5.83]. Asliyat tilidan maqsad tiliga tarjima jarayonida tarjimon qaysi xalqqa mansub bo'lsa, o'sha xalqning dunyoqarashi, fikrlashi, e'tiqodi

akslanadigan milliy til qoliplaridan foydalaniladi: Chingiz Aytmatov “Плахa”da nashavand bolalarga nisbatan *мальчишек* soʻzini ishlatgan, tarjimon uni *ona suti oʻgʻzidan ketmagan* iborasi shaklida oʻgʻirgan, nashavand bola Pashaning otasiga nisbatan ishlatilgan *человек резкого* birikmasi *qattiqqoʻl*; *та трагедия - qora kun, xunbiyron qirgʻin solgan bir kuch; беседа о разных разностях - bir bogʻdan, bir togʻdan deganday suhbatlashib oʻtirganlarimizda kabi yorqin, taʻsirchan shakllarda* oʻgirilgan.


R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, M.Qurbonovalar frazeologizmlarni: dialektal, ilmiy, badiiy, soʻzlashuv uslubiga koʻra farqlanishini; frazeologik maʼno oʻta murakkab tabiatli, leksemada boʻlgani kabi ayrimi denotativ tabiatli boʻlsa, boshqalari grammatik maʼnoga egaligi; masalan, burgaga achchiq qilib, koʻrpa oʻt qoʻymoq, tarvuzi qoʻltigʻidan tushmoq; koʻngli boʻsh; hash-pash deguncha denotativ maʼnoga ega boʻlib mustaqil soʻz turkumiga kiruvchi frazeologizmlar sanalsa, turgan gap, shunga qaramay kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajarishi haqida asosli fikrni ilgari suradilar [6.174].

“Qiyomat” romanida faqat grammatik vazifa bajaradigan nomustaqil frazeologizmlar mavjud. Tarjimon romanda modal munosabatlarni ifodalaydigan bunday frazemalardan oʻrinli foydalangan: *как бы то ни было – ishqilib qanday boʻlmasin; а он, несчастный – boyaqish yigit; но это к слову – bu otadi bir gap-da; моему наивному возмущению – voy bolasi tushmagur-ey; что другого исхода, к сожалению, нет – boʻlar ish boʻlibdi, endi iloj qancha, attang, deyishdan boshqa chora yoʻq; и вот теперь – mana endi desangiz; дело в том – gap shundaki; если бы да кабы – agar-magar deymiz; Боже – Oh, Xudoyim.*

Badiiy tarjima interpretatsiya jarayonidir, yaʼni tarjimonning estetik eʼtiqodi tarjimada iz qoldiradi: “Tarjima davomida tarjimon hamma vaqt oʻz ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezon boʻlib xizmat qiladi. Ayni vaqtda xuddi shu ona tili ijodiy sintez qilishga yordam beradi”[5. 98]. Quyidagi misollarda tarjimonning “uslubiy milliyliigi”, “individual milliyliigi,” tarjima birliklarini nechogʻlik oʻz oʻrnida mohirona ishlata olganligida koʻrinadi:

Тишина была живой frazemasi - Oʻlik sukunatga jon kirdi tarzida semantik va tarkib jihatdan mos holatda tarjima qilingan. *Прежде всего это были люди бездомные, перекаму – поле...* barqaror birikmasi - *Bedananing uyi yoʻq, qayga borsa, pitpildiq deganday, bular ham tayini yoʻq, qamgʻoqdek shamol qayerga uchirsa, shu yerda daydiyigan kimsalar edi* – tarkib jihatdan mos boʻlmagan, obrazli, xalq tilida koʻp ishlatiladigan ekvivalentdan foydalangan holda tarjima qilingan. Tarjima birliklarining xoslanishi ikki tomonlama jarayondir. Tarjima birliklarini, asliyat tili mansub xalqning dunyoqarashi, eʼtiqodi, yashash tarziga mos birliklar tarzida berish, ikkinchisi maqsad tili mansub xalqning dunyoqarashi, eʼtiqodi, qadriyatlariga xoslangan holatda oʻgirishdir. Bu ayniqsa, urf-odat, anʼana bilan bogʻliq va maishiy realiyalarda, shuningdek, barqaror birikmalarning tarjimasida uchraydi.

Quyidagi frazema va barqaror birikmalarni asliyat va maqsad tilida tarkib va semantik jihatdan qay darajada xoslanishini kuzatamiz



Прежде всего это были люди бездомные, перекаати – поле, кроме, разумеется, Кепы: у троих из них ушли жены, все они были в той или иной степени неудачниками, а следовательно, были по большей части озлоблены на мир

Bedananing uyi yo‘q, qayga borsa, pitpildiq deganday, bular ham tayini yo‘q, qamg‘oqdek shamol qayerga uchirsa, shu yerda daydiydigan kimsalar edi. Faqat Kepingina bundan mustasno edi. Uchtasini xotini tashlab ketgan, hammalari ham na birovni yolchitgan, na o‘zlari yolchigan, shuning uchun ham duhyodan to‘ygan, hamma narsadan norozi

Меня давно терзала мысль – найти нехоженные тропы к умам и с сердцам своих сверстников.

O‘zinga tengqur yoshlarning aql va yuraklariga hech kimning hayoliga kelmagan bir yo‘l topsam deb, ich – etimni yeb yurardim.

Говорил я ему, чавыча, еще в прошлый раз говорил, не дури, Моржок, *не лезь на хухок.*

Unga aytganman, chavag‘im, o‘tgan yili aytganman, tentaklik qilma, deganman. *Avval o‘zingga boq, keyin nog‘ora qoq.*

Tarjima jarayonida asliyat tilidagi birliklarni ularning tarjimalari bilan taqqoslaganda, iboralik xususiyati yo‘q, ammo maqsaq tiliga turg‘un birikmalar tarzida o‘girilgan birliklar ham mavjud bo‘ladi. Asardagi *переменила свое намерение*, ya‘ni fikrini o‘zgartirdi erkin bog‘lanmasi – fikri yashin tezligida o‘zgardi; *как тяжело будет потом*, ya‘ni keyin qiyin bo‘ladi, *mazmunini ifodalaydigan sintaktik birlik - keyin ish qanchalar pachava bo‘lishini bilardi - turg‘un birikmasi shaklida o‘girilgan.*

Romandan olingan gap shaklidagi iboralarni kuzatamiz:

1	<i>То видит Бог</i>	<i>Xudo shohid.</i>
2	<i>Я поймал себя на мысли</i>	<i>Bir fikr miyamdan o‘tdi.</i>
3	<i>Так пусто и отчужденно на душе моей</i>	<i>Yuragim huvillagan, bo‘m-bo‘sh.</i>
4	<i>Противостою угрозе небытия</i>	<i>Yo‘qlik dag‘dag‘asiga qarshi ustuvor turaman.</i>
5	<i>Что Господь внял его мольбам</i>	<i>Nolalari Xudoga yetib borganidan behad baxtiyor edi.</i>
6	<i>А увлажненные такыры смягчились, утратив свою жесткость</i>	<i>Qatqaloq taqirning bag‘ri yumshadi.</i>
7	<i>Дорога лежала в духовную сферу</i>	<i>Yo‘li ruhoniyl ulum sohalari sari tushgandi.</i>
8	<i>День клонился к концу</i>	<i>Kun og‘di.</i>

9	<i>Хладнокровно просматривали</i>	<i>Sovuq nazar tashlashardi</i>
10	<i>Переменила свое намерение</i>	<i>Fikri yashin tezligida o'zgardi.</i>
11	<i>Освободила животных от этого проклятого бремени бытия</i>	<i>Tiriklikning bu qarg'ish tekkan tashvishidan xalos etgan ekan</i>
12	<i>Как тяжело будет потом</i>	<i>Keyin ish qanchalar pachava bo'lishini bilardi.</i>
13	<i>Он действительно обладал социально ориентированным нюхом..</i>	<i>Uzoqdan hid bilishga juda usta odam...</i>
14	<i>Быстро освоили новое дело</i>	<i>Darhol bu ishning ham payxovasini olishdi</i>
15	<i>Не ведая ни сном ни духом</i>	<i>Yetti uxlab tushlariga ham kirmagan</i>
16	<i>Поддались беспорядочной панике</i>	<i>o'zlarni bosholmon har tomonga ura boshladilar.</i>
17	<i>Моюнкусское светопредставление</i>	<i>Mo'yinqumda bamisoli jahannam qo'pganga o'xshar edi.</i>
18	<i>Душа болит</i>	<i>Odamning joni kuyadi.</i>

Jahon ilm-fanida turg'un birikma - kollokatsiyalar ustida ancha tadqiqotlar olib borilgan. Shayna Olivier o'zining "1000 English Collocations in 10 Minutes a Day" nomli kitobida ingliz tilidagi kollokatsiyalarni matn bilan bog'liq holda izohlaydi, ularni "birgalikda foydalaniladigan oddiy yoki murakkab kombinatsiyalar orqali birikkan so'zlar" deb ta'riflaydi[7]. Kathleen R. McKeown va Dragomir R. Radevlar: "Kollokatsiyalar osongina aniqlanmaydi. Lingvistik va leksikografik adabiyotlarda ular ko'pincha bir ekstremalda erkin so'z birikmalaridan va ikkinchisida idiomatik iboralardan farqli ravishda muhokama qilinadi. Erkin so'z birikmasini umumiy qoidalar yordamida tasvirlash mumkin, ya'ni berilgan bosh so'z bilan ma'lum bir sintaktik munosabatda kelgan so'zlarga ma'no cheklovlari nuqtayi nazaridan yondashiladi. Idioma esa qat'iy so'z birikmasi bo'lib, uning ma'nosini qismi ma'nosidan aniqlab bo'lmaydi. Kollokatsiyalar ushbu ekstremallar orasida joylashgan"[8].

Ingliz tili uchun kollokatsiyalar tizimini o'rganishga qaratilgan turli manbalar: MacMillan Collocations Dictionary, Oxford Collocations Dictionary, Longman Collocations Dictionary and Thesaurus kabi lug'atlar, British Council LearnEnglish website, English Grammar in Use website kabi onlayn websaytlar, Sketch Engine, Corpus Concordance_kabi korpuslar uchun lingvistik ta'minotlar hamda Duolingo, Memrise, Anki kabi mobil ilovalar yaratilgan.

Anglophonic Writers						
<i>Verb + Noun</i>	<i>Verb + Adv/Adj.</i>	<i>Noun + Verb</i>	<i>Noun + Noun</i>	<i>Adjective + Noun</i>	<i>Adverb + Adjective</i>	<i>Adverb + Verb</i>
Capture relationship	Addressed peripherally	Analyses show	Access to information	Additional benefit	Closely related	Better understand
Demonstrate a desire	Become marginal	Data elicit	Capstone experience	Baseline population	Dramatically different	Cognitively engage
Develop idea	Communicate successfully	Findings reveal	Effect size	Close resemblance	Equally important	Deeply steeped
Give insight	Flow uninterruptedly	Results indicate	Head start	Cumulative process	Hardly controversial	Fully exploit
Lack access	Go awry	The figure illustrate	Language minority	Full credit	Immediately striking	Jointly code


Oxford Collocations Dictionaryga nazar solinganda, u qidiruvga kiritilgan so'z bilan kollokatsiya hosil qilishi mumkin bo'lgan barcha birikmali holatlarni aniqlab beradi. Turk tilshunosi Junayt Demir


o‘zining “Lexical collocations in English: a comparative study of native and non-native scholars of English” nomli maqolasida mahalliy va mahalliy bo‘lmagan tadqiqotlarda qo‘llanilgan kollokatsiyalarni tahlil qiladi. Anglofonik hamda turk yozuvchilarining tadqiqotlarini yettita kategoriya asosida ko‘rib chiqadi. Turk olimlariga qaraganda anglofonik olimlar qo‘llagan kollokatsiyalar kamyoblighi hamda ularni to‘g‘ri qo‘llashga doir jihatlari bilan ustunlik qilishini asoslaydi, har bir kategoriya uchun mos keluvchi namunalarni taqqoslaydi [9]:

Turkish Writers						
<i>Verb + Noun</i>	<i>Verb + Adv./Adj.</i>	<i>Noun + Verb</i>	<i>Noun + Noun</i>	<i>Adjective + Noun</i>	<i>Adverb + Adjective</i>	<i>Adverb + Verb</i>
Attract attention	Affect positively	Analyses include	Added variables	Available knowledge	Always available	Briefly stated
Cause anxiety	Answer sincerely	Change to practise	Answer key	Background information	Clearly important	Carefully listen
Complete task	Become trendy	Data demonstrate	Body language	Current situation	Disturbingly high	Dramatically increase
Create a ground	Chance quickly	Findings suggest	Career purposes	Daily activity	Easily accessible	Easily get

Parallel korpusda tarjima birliklarining aniq, to‘g‘ri bo‘lishi, ularning lingvistik bazaga to‘g‘ri kiritilganligi bilan bog‘liq. Lingvistik bazaning ko‘p sonli birliklardan iborat bo‘lishi badiiy asarlar tarjimasining sifatli chiqishini ta’minlaydi, shuningdek, boshqa tarjima dasturlariga ham lingvistik baza bo‘lib xizmat qiladi.

“Qiyomat” romanidagi frazemalarning ayrimlarini Google Переводчик, Tilmoch, Yandex tarjimon dasturlari orqali tekshirib ko‘ramiz:





Google Переводчик dasturi “как щепку”, живой водоворот” frazemasini “bir parcha-parcha, tirik girdob kabi” shaklida o‘girdi. Tarjimon esa “girdobga tushgan cho‘pdek chirpirak qilib aylanadi” shaklida tarjima qilgan. Tilmoch dasturi “моему наивному возмущению” birligini “mening sodda jahldorligimga” tarzida o‘girdi. Ibrohim G‘afurov esa “voy bolasi tushmagur-ey” milliy ekvivalent shaklida qo‘llagan. Yandex mashina tarjimasida “притаилась, от страха не выдержали” – “u yashirinib qo‘rquvdan omon qolmadi” tarzida o‘girilgan. Ibrohim G‘afurov bu birlikni “esxonalari chiqqancha, yuraklari dosh bermay” obrazli, ta’sirchan frazema shaklida qo‘llagan:

Волки сначала **притаилась, от страха** вжимаясь в корневия чиев, но затем **не выдержали** и бросились наутек проклятого места

Bo‘rilar ham **esxonalari chiqqancha**, psib chiylarning do‘mpaygan ildiz to‘plari tagiga biqindilar. Lekin baribir **yuraklari dosh bermay**, la’nati yerdan ura qochishga tushdilar.

Frazemalar murakkab struktur-grammatik xususiyatga ega bo‘lgan yaxlit, yangi lug‘aviy ma’noni ifodalaydigan til birligidir. Bu ma’noni anglash esa avtomatik tarjima jarayoni uchun qiyin kechadi. Soha mutaxassislari frazemalarni maxsus teglar, razmetkalar bilan belgilanishi lozimligini ta’kidlaydilar: “Badiiy asarlar asosidagi parallel matnlar korpusida frazemalar bilan bog‘liq muammolar bo‘lishi aniq. Frazemalar ikki yoki undan ortiq so‘zdan tuzilib, shu so‘zlar semantikasi asosida yangi ko‘chma lug‘aviy ma’noni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, parallel matnlar korpusini shakllantirishda to‘g‘ridan to‘g‘ri mashina tarjimasidan foydalanilsa, semantikani to‘g‘ri yoritishda muammolar kelib chiqadi. Muammolarni barataraf etish uchun frazemalar sodda va qo‘shma leksik birliklar, so‘z birikmalaridan farqlanishi, maxsus teglar, razmetkalar bilan belgilanishi lozim. Frazemalar tarjimasida, albatta, mutaxassis nazorati kerak bo‘ladi”[10.33].

Professor Z.Xolmanova “Kompyuter lingvistikasi” darsligida mashina tarjima borasidagi muammolar yechimiga doir fikrni keltirib o‘tadilar: “Rus olimi Y.I. Shemakin “Начало компьютерной лингвистики” kitobida avtomatik tarjimaning ikki xil modelini va tarjima protsedurasini chizmalar asosida tushuntirib bergan. Birinchi yondashuv “matn-mazmun-matn” modeli va semantikaning formal tavsifiga tayanadi. Ikkinchi yondashuv esa “matn-matn” modeli va u tarjima mosligiga asoslangan. Birinchi yondashuvda tilning semantikasiga maksimal darajada e’tibor bergan holda avtomatik sifatli tarjimaga erishishga harakat qilingan. Tizimning lingvistik asosi “matndan uning mazmuniga qarab borish”(“from surface structure to deep structure”) hisoblanadi. Bunda tarjima tilning morfologik, sintaktik va semantik tahlili, lug‘atlar, grammatik qoidalar, matnlar korpusiga asoslanib amalga oshiriladi”[11.122].

Tipologik jihatdan har xil, bir sistemaga mansub bo‘lmagan tillarning avtomatik tarjima muammosi lingvistik tipologiyadagi farqlarni izchil o‘rganish, lingvistik universalialarni aniqlash, tillardagi

frazelogizmlar, idiomalar, paremlar, sinonimlar, omonim birliklarini qat'iy belgilash tizimini yaratish asosida hal etiladi.

Rus-o'zbek parallel korpusi doimiy ravishda kontentlar bilan boyitib boriladigan jarayonlardan iborat. Rus-o'zbek tillaridagi frazemalarning tizimlashtirilgan va teglangan ma'lumotlar bazasini yaratish rus-o'zbek tillarini o'qitish, avtomatik tarjima jarayonini takomillashtirish, badiiy matnlar tarjimasini sifatli amalga oshirishda lingvistik baza sifatida xizmat qiladi. Rus-o'zbek tillaridagi frazemalar rus-o'zbek parallel korpusining tizimlashtirilgan va teglangan ma'lumotlar bazasi ta'limiy korpuslar, rus-o'zbek tillarining bir necha tillar kesimidagi parallel korpuslarini yaratish uchun ham material bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Maslova V.A. Лингвокультурология: Учеб.пособия для студ. высш. учеб. заведений. - М. Издательский центр "Академия", 2001. – С.82
2. Образные средства русского языка. Под. ред. В. Н.Телия. – М.Оточество. 1995. – 366 с.
3. Ш. Рахматуллаев. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. Тошкент. 1992. 378 б.
4. Абдурахмонова Н. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (содда гаплар мисолида). Филол.фан.б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – Б.36.
5. Ғ.Саломов. Таржима назариясига кириш. – Тошкент, 1978. В.219.
6. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2010. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbonova M.M., va boshqalar.Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. В.585
7. Shayna O. 1000 English Collocations in 10 Minutes a Day. 2013. EspressoEnglish.net
8. Kathleen R.M., Dragomir R.R. Collocations. Department of Computer Science Columbia University, New York, September 3, 1997. document (psu.edu)
9. Cüneyt D. Lexical collocations in English: a comparative study of native and non-native scholars of English // Journal of Language and Linguistic Studies, 2017. 440500 (dergipark.org.tr)
10. Рахмонова А. Ўзбек тили миллий корпусини яратишда компьютер усуллари. Филол. фан.б. фалс.док. (PhD) дисс. - Тошкент, 2022. - Б.17.
11. Xolmanova Z.T. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent. 2024. В. 228.



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000